

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR KENGASHINING  
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN  
RESPUBLIKASI  
MINISTRLER KENESININ  
QARARI**

2023 - yil 17 - noyabr

411-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumani "Qazaqdarya" OFY  
hududidan doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-198-sonli qaroriga muvofiq, "Radioaloqa, Radioeshittirish va televideniye markazi" DUK Qoraqalpog'iston radioteleuzatish markazining 2023-yil 7-sentyabrdagi 01-36/129-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mo'ynoq tumani "Qazaqdarya" OFY hududidagi tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan 0,155180 gektar amalda foydalanib kelinayotgan yer maydoni ilovaga muvofiq Qazaqdarya radiotelevizion stansiyasiga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berilsin.

3. Radioaloqa, Radioeshittirish va televideniye markazi DUK Qoraqalpog'iston radioteleuzatish markaziga (A.Utemuratov) belgilangan tartibda:

ajratilgan yer maydoniga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

ajratilgan yer uchastkasida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralarini ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunbaev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritсин.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi Vazirlar  
Kengashi Raisi**



**F. Ermanov**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Vazirlar Kengashining  
2023-yil 17-noyabrdagi  
411-13-0-Q/23-son qaroriga  
1-ilova

Qoraqalpog'iston Radioteleuzatish markazi Múynoq tumani "Qazaqdarya" OFYdan  
radiotelexizion stantsiyasi qosimsha yer uchastka tanlangan  
TARXI  
M:1:500



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar:  
Yer uchastkasi Múynoq tumani "Qazaqdarya" OFY hududida joylashgan bo'lib, Shimoliy-G'arbda ochiq yer maydon  
Janubiy-G'arbda ochiq yer maydon.  
Janubiy-Sharq tomonida 10 metr masofada radiotelevizion binosi  
Shimolda 18 metr masofada radiotelevizion binosi.

Koordinatalari:

1	43°25'30,294"S	59°38'52,283"V	5	43°25'28,705"S	59°38'52,206"V
2	43°25'30,475"S	59°38'52,253"V	6	43°25'29,131"S	59°38'52,165"V
3	43°25'29,983"S	59°38'49,742"V	7	43°25'29,057"S	59°38'50,883"V
4	43°25'28,558"S	59°38'50,106"V	8	43°25'30,048"S	59°38'50,702"V

Shahar markazida joylashgan

Yer uchastkasi maydoni (ga): 0,155180 ga (1551.80 m<sup>2</sup>)

Yer fondi: Tuman zahira yerlari.

Yer turi: qishloq xo'jaligida foydalanmaydigan boshqa yerlar

Ball boniteti: Baholanmagan.

Yer uchastkasining kadastr raqami: 23.05.06.01.01.0345

Foydalanish maqsadi: radiotelexizion stantsiyasiga qosimsha yer ajratish

WGS-84 Koordinatasi 1. 43°25'29,482"S 59°38'50,401"V